

NAVOIY VA BOBURNING G'AZALCHILIKDAGI O'RNI HAMDA G'AZALLARINING O'XSHASHLIGI

Dilnavoz G'olibova Jamilovna

Samarqand viloyati Nurobod tumani 46- umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14740214>

Annotatsiya. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur muhim siyosiy o'zgarishlar davrida yashagan tarixga o'zining munosib hissasini qo'shgan.

Kalit so'zlar: G'azal, taxlil, tashxis, aruz, gul, chiroy, tarix, adabiyot.

THE PLACE OF NAVOI AND BABUR IN GAZEL POEMS AND THE SIMILARITY OF THEIR GAZELS

Abstract. Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur made their worthy contribution to history, which lived during a period of important political changes.

Keywords: Ghazal, analysis, diagnosis, dream, flower, beauty, history, literature.

МЕСТО НАВОИ И БАБУРА В ГАЗАЛИЗМЕ И СХОДСТВО ИХ ГАЗЕЛЕЙ

Аннотация. Алишер Навои и Захириддин Мухаммад Бабур внесли свой достойный вклад в историю, живя в период значительных политических перемен.

Ключевые слова: Газель, анализ, диагностика, сон, цветок, красота, история, литература.

O'zbek mumtoz adabiyoti avlodlarimizga va bizga ulkan meroslar qoldirgan. Biz o'ylab ko'rsak o'zbek mumtoz adabiyoti deganda ko'zimizning oldiga birinchi Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Fuzuliy va shu kabi olimlar keladi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan bu asarlar o'sha davrdagi turkiy til adabiyotini boyitgan. Nafaqat o'sha davr olimlari shoh va sultonlari oddiy xalqlarning tasavvur va e'tirofiga erishgan bo'lsa, hozirda ham bu asarlar o'zining yuksak o'rnini egallab turibdi.

Ularning shoh asarlari ya'ni mutafakkirlarimiz Alisher Navoiyning "Xamsa", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlari aholining yetmish yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan qatlamining miyasida saqlanib qolgan. Ularning Alisher Navoiy desa ko'z oldiga "Xamsa" asari, "Boburnoma" asari deyilsa esa ko'z oldimizga Zahiriddin Muhammad Bobur kelishi tabiiy hol bo'lib qolgan.

Shuni ta'kidlashimiz kerakki, ularning asarlari hozirgi zamonda ham, o'zlarining davrida ham shunchalik mo'tabar o'rinda qo'yilgan va ular sevib o'qilgan. Shuni aytib o'tish kerakki, o'quvchilar bu asarni o'qiganda qanchalik oson tushuna olishi, yozilish usuli va ularni qaysi davrga xos bo'lmasa ham hozirgi davrda shu asarni o'qishdan oldin nimalarni o'qishimiz kerakligi haqida suhbatlashib o'tishimiz kerak. Bu mutafakkirlarimizning "Xamsa" yoki "Boburnoma" kabi shoh asarlari bo'lmaganida ham ular jahon adabiyotida turkiy til namoyondalari bo'lib qolar edi.

Har bir satri bir dunyo, har bir bayti bir olam bo'lgan "Xamsa" ning ichida qanday pand nasixatlar insonning xulqi, tarbiyasi, hayoti jamiyatdagi o'rniga ta'sir qiladigan o'gitlar berilgan bizning tasavvurimizga sig'maydi. Nima uchun insonlar "Xamsa" yoki "Boburnoma"ni o'qib bunchalik hayratlanishadi. Chunki ularning bir satrida biz har tomondan qarasak, har xil dunyoqarash bilan tushunsak, har xil ma'nolarni keltirib chiqaradi. Ya'ni har bir so'zning tagida bir nechta tub ma'no bo'lib, ularni har qanday pand-nasihat yo'lida qabul qilishimiz mumkin. Ya'ni bu satrlar, bu g'azallar, bu she'rlar, baytlar faqatgina, bittagina voqea-hodisa uchun pand-nasihat darajasida yozilmagan. Bittagina satrning o'zini biz har xil vaziyatlarimiz uchun tarbiya sifatida qabul qilib olsak bo'ladi.

Har qanday o'xshatish va timsollar Sharq mumtoz she'riyatida ijodkorning holatini va maqsadini ifodalash uchun xizmat qilgan.

She'riyatning tashbeh, tashxis, tanosub kabi she'riy san'atlarini hosil qilishda qomatni sarvga, raqibni tikanga, ko'zni ohuga qiyoslash holatlari uchraydi. Zahiriddin Muhammad

Bobur ham shunday o'xshatishlardan juda yaxshi foydalangan. Gulni tashxislantirganda ko'z oldimizda guldek chiroyli, nozik bir go'zal qiz gavdalanadi.

Boburning ijodida gul obrazi orqali yorning go'zalligi, chiroyi, nozikligi tasvirlangan.

Alisher Navoiyning birinchi devoni 24-25 yoshligida muxlislari tomonidan "Ilk devon" nashrdan chiqariladi. Xalq orasida Navoiy she'rlarining tez yoyilganining sababi ham shundandir. Alisher Navoiy ikki tilda ham umuman qiynalmay ijod qilgan, lekin o'zi turkiy tilda yozishni yoqtirgani haqida ham ko'p ma'lumotlar uchraydi.

O'zbek lirik poetikasining janr jihatidan boyib mukammal holga kelishi buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq.

Navoiy kuylar tizimini so'zlar yordamida yaratgan. Alisher Navoiy so'zning ohangiga ham katta etibor bergan. Shuning uchun uning g'azallari va she'rlari musiqiy sado bilan uyg'unlashadi.

Shuning uchun ham hozirgacha Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning g'azallari qo'shiq qilib kuylanadi.

Alisher Navoiy faqat davlat arbobi bo'lib qolmay adabiyot din va tarixga oid ham ko'pgina asarlar yozgan. Bobokalonimiz Alisher Navoiy yoshligida adabiyotga juda qiziqqan va g'azallar yoza boshlagan. Yoshligidan adabiyotga, ilmga qiziqishiga asosiy sabab oilaviy muhit oilasida shoirlar yig'ilib g'azalxonliklar o'tkazishar edilar. Shular sababli Alisher Navoiy ham juda qiziqqan. Alisher Navoiy turk tilining ustunligini shu yozgan asarlari orqali isbotlab bergan. Uning asarlari sodda va tushunarlilik bilan boshqa ijodkorlarning asarlaridan ustunligi shundandir. Alisher Navoiy faqat asarlar yozib qolmay musiqa, rassomlikka ham qiziqqan. Bu ikki bobokalonimiz bir asrda yashab ijod qilgan. 42 yil farqi bilan bir-biriga zamondosh hisoblanadi. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining eng katta asari "Boburnoma" da Alisher Navoiy haqida juda ham ko'p ma'lumotlar qoldirgan. 16 marta Alisher Navoiyning ismi tilga olingan.

"Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubdurlar hech kim ancha ko'p va xo'p aytgan emas". Musiqadan ham xabari bor ekanini shu misralar orqali bilishimiz mumkin.

...yana musiqada yaxshi nimaxo'rlar bog'laptur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur. Bu ikki shoirning bizga qoldirgan merosi ucha ham ko'p ulardan bizga ko'p kitoblar qolgan har bir yozgan asarida qanchadan - qancha ma'no yashiringan biz bu asarlarni har birini sevib o'qiymiz bu asarlarni o'qish davomida o'zimizni ham shu jamiyatdagi tasavvur qilib ko'ramiz. Bu ikki bobokalonimiz yozgan har bir asarining bizga foydasi ko'p.

Navoiy va Boburning g'azallari o'zaro o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, ularning asarlaridagi uslub, mavzu va yondoshuvlar o'rtasida ba'zi farqlar ham mavjud. Quyida ularning g'azallari haqida qisqacha ta'rif berish orqali o'xshashliklar va farqlarni ko'rib chiqamiz.

Navoiyning G'azallari:

Alisher Navoiy, o'zining «Xamsa» asarida o'ziga xos g'azallar yaratgan va bu janrda o'zining mustahkam o'rnini topgan. Uning g'azallari asosan falsafiy, ma'naviy, sufiylik va ijtimoiy mavzularni o'z ichiga oladi. Navoiyning g'azallarida ma'naviyat, ilohiy muhabbat, inson ruhiyatining tub o'zgarishlari va umuman, insonning haqiqiy maqsadlari haqida chuqur mulohazalar aks etadi. Navoiyning g'azallari ko'pincha mushkul, poetik va falsafiy mazmunga ega.

Boburning G'azallari:

Bobur esa asosan o'zining o'ziga xos uslubida va ko'proq shaxsiy his-tuyg'ularini

ifodalashga moyil bo'lgan. Boburning g'azallari ko'proq oddiy va sodda, lekin shu bilan birga his-tuyg'ularni chuqur anglashga yordam beradi. U, ko'pincha, sevgiga, iztiroblarga, qadriyatlar va dunyoqarashlar haqida o'z mulohazalarini ifodalagan. Bobur o'zining g'azallarida an'anaviy shakllarni saqlagan, ammo ular ko'proq bevosita va ochiq-oydin ifodalanadi.

O'xshashliklar:

- **Muhabbat va sufiylik:** Ikkala shoir ham g'azallarida muhabbat va ilohiy muhabbatni o'rganishga katta e'tibor berishadi. Navoiyning g'azallarida sufiysi ma'naviy jihatlar kuchli bo'lsa, Boburda ham muhabbat va iztirobga oid hissiyotlar ilgari suriladi.

- **Lirik uslub:** Ikkala shoir ham o'zlarining g'azallarida lirik va shaxsiy ifodani o'ziga xos ravishda ishlatganlar. His-tuyg'ular, ichki iztiroblar va yashirin ma'nolar ko'plab g'azallarda aks etadi.

- **She'riyatdagi an'anaviy shakllar:** Ikkalasi ham klassik gazal shaklidan foydalangan. Bu shaklda ularning she'rlari bir xil ritm va tuzilishga ega.

Farqlar:

- **Uslubiy yondoshuv:** Navoiyning g'azallari ko'proq ma'naviy, tasavvufiy va falsafiy bo'lib, murakkab tilda yozilgan. Bobur esa o'zining g'azallarini oddiy va tushunarli shaklda yaratgan.

- **Mavzular:** Navoiyning g'azallarida ko'proq diniy va ma'naviy mavzular ustuvor bo'lsa, Boburda ko'proq shaxsiy hayot va uning qiyinchiliklariga oid tasvirlar ko'rsatiladi.

Xulosa:

Navoiy va Bobur o'rtasidagi o'xshashliklar ko'p, lekin ularning g'azallari turli uslublar va mazmun bilan ajralib turadi. Navoiyning g'azallari ko'proq ma'naviyat, falsafa va sufiysi jihatlarini o'z ichiga olgan bo'lsa, Bobur o'zining his-tuyg'ularini va shaxsiy qiyinchiliklarini ochiq va sodda ifodalagan. Ularning asarlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'z zamonida va hozirda ham o'z o'rnini saqlab qolgan.

REFERENCES

1. Saipova D. O'zbek maqomlarida Hazrat Navoiy g'azallari.
2. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. 20 tomlik. 16-tom. 2000-yil
3. Bekmirzayeva Xosiyat. Gul va bulbul Yoshlik. 2014-yil
4. Bobur. Har kimki vafo qilsa. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2019-yil 160 b.
5. Sulaymonov Sh, To'xsanov Q. Adabiyotshunoslik atamalarining qisqacha izohli lug'ati. -Buxoro. 2009